

## 28-dars

### Darsning mavzusi: So‘z turkumlari. (122-124-mashqlar)

**Darsning ta’limiy maqsadi:** o‘quvchilarning so‘z turkumlari haqidagi bilimlarini boyitish; gapdagi so‘zlarni o‘zaro bir-biri bilan qo‘sishchilar yordamida bog‘lay olish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:** o‘quvchilarni bilim olishga undash va vatanparvarlik hislatlarini tarbiyalash; o‘quvchilarni bajarilayotgan mashqning maqsadini tushunishga o‘rganish; o‘zining xato va kamchiliklarini to‘g‘ri tushunib, o‘zini nazorat qila olish, o‘rtoqlariga yordam berish; aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:** mashq matnlari orqali o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirish; mavzuga oid so‘zlarni og‘zaki va yozma nutqda qo‘llay olish, o‘zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo‘llay olish.

**Darsning turi:** bilimlarni shakllantiruvchi; o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantiruvchi;

**Darsning metodi:** suhbat, analiz, ko‘rgazmalilik, mustaqil ish metodi.

**Darsning jahozi:** mavzuga oid rasmlar, multimedia ilovalari.

#### Darsning borishi

##### I.Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o‘quvchilarni darsga hozirlash.

##### II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

###### Husnixat daqiqasi:

*Vataning tinch – sen tinch*

O‘tilgan mavzuda berilgan uyga vazifasini tekshirish. Uyga berilgan mashq o‘qitiladi. Uy vazifasi tekshirilayotganda doim o‘quvchilarga “Qaysi so‘zda yoki shu so‘zning qayerida imlo xato qilib qo‘yish mumkin?” degan savol berish hamda o‘sha so‘zning imlosi ustida ishlash lozim. So‘z va gap haqidagi bilimlarini so‘rab mustahkamlash.

##### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

**122-mashq.** She‘r o‘qiladi. Mashq shartiga ko‘ra bajariladi.

Katta- sifat, sinfxona- ot, qilma- fe'l, qilyapti- fe'l, mustaqil- sifat, yetaylik- fe'l, ketaylik- fe'l.

“Iz qoldirib ketaylik” jumlasining mazmuni tushuntiriladi.

**123-mashq.** O'qing. Berilgan so'zlar qatoridan ortiqchasini topiladi.

1. Mato

2. To'qqizta


3. Talaba

4. Binokor

Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuziladi.



**“Sherigini top!”**



#### **V. Darsga yakun yasash va baholash.**

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

#### **VI. Uyga vazifa berish.**

**124-mashq** sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.